



2018-2019-o'quv yilida umumiy o'rta
ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari
uchun TARIX fanidan mustaqil
shug'ullanishlari uchun
QO'LLANMA

Maktabim.uz

6-SINF TARIX

2019

Ushbu materiallarni ruxsatsiz tarqatish, sotish qat'iyan taqiqlanadi.

6-sinf tarix 2019

1-bilet

1. Qadimgi Misr davlatining tashkil topishi.

Qadimgi podsholik davrida Sinay yarimoroli bosib olinadi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to'lay boshlashdi. Fir'avnlr Nubiya va Liviyaga ham yurish qilib, shaharlarni taladilar, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldilar. O'rta podsholik fir'avnlari Janubiy Falastin yerlari va Nubiya shimolini Misrga qo'shib olishga erishdilar.

Mil. avv. XVIII asr oxirida ko'chmanchi *giksoslar* qabilalari Misrga hujum qildi. Misrliklarning piyoda qo'shinlaridan farqli o'laroq giksoslarning asosiy kuchi otlar qo'shilgan jangovar aravalari bo'lgan. Bir askar otlarni boshqarib turgan, ikkinchisi esa kamondan dushmanlarni nishonga olib o'q uzgan.

2. Xeroniya ostonasidagi jang haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 338- yilda yunonlar va makedonlarning asosiy kuchlari *Beotiyadagi Xeroniya* shahri yaqinida to'qnashadilar. Qattiq jang uzoq davom etadi. Harbiy hiyla qo'llagan yunonlar ustunlikni qo'lga oladilar. Makedonlar chekina boshlaydilar. G'alaba qilayotganiga ishona boshlagan yunonlar ularni quvishga tushadilar. Yunonlarning qo'shinlari shunda ikki bo'lakka ajraladi. Ana shu bo'laklardan biriga Filipp II ning o'g'li *Aleksandr* qo'mondonlik qilayotgan suvoriy qo'shinlar qaqshatqich zarba beradi. Yunon qo'shinlari chekina boshlaydi va tor-mor etiladi. Jangda yunonlarning aksariyati halok bo'ldi. Xeroniya ostonasidagi jangdan So'ng mag'lubiyat oqibatida Yunoniston Makedoniyaga qaram bo'lib qoldi.

2-bilet

1. Qadimgi Mesopotamiya tabiiy sharoiti va aholisi.

Dajla va Frot daryolari oralig'idagi vodiyni yunonlar *Mesopotamiya* deb nomlashgan, bu atamaning tarjimasi *Ikki daryo oralig'i* degan ma'noni anglatadi. Odamlar Mesopotamiyaga qadim zamonlarda ko'chib joylashganlar.

Mesopotamiyaga daryolarning toshqin suvlari turli tuproq va tog' jinslaridan iborat loyqalarni oqizib kelgan. Ular yerlarni o'g'itlagan. Shu sababli Mesopotamiya yerlari ishlov berish uchun qulay, serunum bo'lgan. Qishda surunkali yomg'ir va daryolar toshqini bo'lib turgani sababli Mesopotamiyada jahondagi eng qadimiy rivoyatlardan biri – Yer yuzini butunlay suv bosishi to'g'risidagi *To'fon rivoyati* dunyoga kelgan.

2. Fermopil jangi haqida ma'lumot bering.

Yangi urushga tayyorgarlik ketayotgan paytda Doro I vafot etdi. Yunonistonga qarshi uning o'g'li Kserks yurish boshladi. **Mil. avv. 480 - yilda** Kserks qo'shini shimoliy Yunonistonni ishg'ol qiladi. Tog'lardagi *Fermopil darasi* Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan-bir yo'l edi. Yunonlar o'sha joyda pistirma qo'yishga qaror qilishdi. Yunonlar qo'shiniga Sparta podshosi *Leonid* boshchilik qilgan. U forslarning hujumlarini qaytarib turgan. Biroq bir sotqin forslarga tog'lar orqali o'tgan boshqa yo'lni ko'rsatib bergan. Bundan xabar topdan Leonid 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Spartaliklarning barchasi jang maydonida qahramonlarcha halok bo'ldi. Ushbu voqea «*Uch yuz spartalik jasorati*», deb tarixda mashhur bo'lib qolgan. Fermopil jangidan keyin Kserks qo'shinlari O'rta Yunonistonga yetib borib, Afi nani ishg'ol qilganlar.

3-bilet

1. Babil podsholigi.

Miloddan avvalgi II-ming yillikda *Babil podsholigi* Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Babil qulay geografik o'ringa ega bo'lib, Frot va Dajla daryolarining o'zanlari

bir-biriga yaqinlashib ketadigan hududda joylashgandi. Kemalarda turli mahsulotlar bilan suzib kelgan savdogarlar bu shaharga qo'nib o'tishar. «Bobil» so'zining o'zi esa «*xudolar darvozasi*» degan ma'noni anglatadi. Bobil shahrida ajoyib saroylar, muhtasham ibodat xonalar bo'lgan. Bobilning bosh ko'chasi g'alaba ilohasi *Ishtar darvozasidan* boshlangan. Bobil davlatida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdosotiq rivojlangan. Ammo o'zaro urushlar ham bo'lib turgan.

2. Eng qadimgi odamlarning mashg'ulotlari.

Tabiat insonga nimani in'om etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan. Shuning uchun ham kishilarning eng qadimiy mashg'uloti bo'lgan *termachilik* va *ovchilik o'zlashtiruvchi xo'jalik* deb ataladi.

4-bilet

1. Yangi Bobil podsholigi.

Navuxodonosor II hukmronligi davrida Yangi Bobil podsholigi o'z ravnaqining cho'qqisiga erishadi. Bu hukmdor Misrni *Yangi Bobil* podsholigiga qo'shib oladi, *Iyerusalim* (Quddus)ni vayron qilib tashlaydi, Bobilni esa mustahkam qal'aga aylantiradi. *Navuxodonosor II* turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g'ishtdan foydalanish to'g'risida farmon beradi. U hukmronlik qilgan davrda Bobil shahrining sakkizta darvozasi bo'lgan, ulardan har biri mamlakat bosh xudolaridan birining nomi bilan atalgan. Ayniqsa, iloha *Ishtar* nomidagi darvoza chiroyli va nafi s bo'lib, afsonaviy hayvonlar tasviri tushirilgan koshin toshtaxtalar bilan bezatilgan. Qadimgi forslar lashkari **mil. avv. 539-yilda** Bobilga bos tirib kiradi va shaharni zabt etadi. Shu paytdan boshlab Yangi Bobil podsholigi Fors davlati tarkibiga kiradi.

2. Salamin jangi haqida ma'lumot bering.

Yunonlar va forslar o'rtasidagi hal qiluvchi dengiz jangi **mil.avv. 480-yilda** tor *Salamin bo'g'ozida* bo'lib o'tdi. Yunonlarda 200 ta harbiy kema – *triyeralar* mavjud edi. Bu kemalar qoyalar orasidan va sayoz joylardan oson suzib o'tar, o'sha davr uchun katta tezlikda – soatiga 18 kilometr tezlikda suza olgan. Yunon shahar-davlatlarining birlashgan fl o'ti forslarning harbiy fl otidan kuchli bo'lgan. Yengilganidan keyin *Kserks* Yunonistonni tark etishga majbur bo'ldi.

5-bilet

1. Ossuriya podsholigi.

Qadim zamonlarda ossuriyaliklar *Frot* va *Dajla* daryolari yuqori oqimidagi kichik hududni egallashgan. Avval *Oshshur* shahri, keyin esa *Nineviya* shahri poytaxt bo'lgan. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va savdo-sotiq edi. Ossuriyaliklar jangari xalq bo'lgan. Ular qo'shni yerlarga tez-tez hujum qilib turardilar. Ossuriyaliklarning qudratli lashkari har yili yangi yerlarni zabt etishga erishganlar. Bo'ysundirilgan xalqlar Ossuriya hukmdoriga katta miqdorda o'lpon to'lagan. Shaharni bosib olgan ossuriyaliklar qal'a devorlarini, uylar va ibodatxonalarini buzib tashlab, aholini asirlikka haydab ketganlar. Yurishlarda raqiblardan tortib olingan hamma narsa poytaxtga oqib kelar edi. Ulug'vor saroylar va ibodatxonalar boylikka to'lib ketgan. *Oshshurbanapal* hukmronligi davrida *Nineviya*da Old Osiyodagi eng yirik sopol taxtachalardan iborat kutubxona jamlangan edi. Asta-sekin Ossuriya davlati zaiflashib bordi. **Mil. avv. 605-yilda** Ossuriya qo'shinlari Bobil va Midiya tomonidan qirib tashlangandan keyin davlat zavolga yuz tutdi.

2. Xristianlikning vujudga kelishi.

Milodiy I-asr boshlarida Rim hokimiyati ostida bo'lgan Falastin yerlaridagi *Vifl eem* shahrida «Xudoning o'g'li» nomini olgan *Iso* tug'ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlagan. *Rivoyatlarga ko'ra, 30 yoshida Iso o'n ikki nafar havoriylari (apostollar) bilan Falastin bo'ylab sayohat qilib, Xudo oyat lari haqida hikoya qilib beradi va mo'jizalar ko'rsatadi – yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarni davolaydi. Mahalliy ruhoniylar Iso payg'ambarini mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o'lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noibi Pontiy Pilat*

bu hukmni tasdiqlagan. Rivoyatlarga ko'ra, Isoni yer yuzidagi ilk inson – Odam ato dafn etilgan Golgofa tog'ida xochga tortganlar.

Vafotidan keyin murdasini bir g'orga qo'yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun kelishganlarida Iso Masih jasadi qo'yilgan joyida yo'qligini ko'rishadi.

Odamlar Iso payg'ambarning qayta tirilib, me'rojga ko'tarilishiga va Yer yuziga qaytib kelishiga ishonganlar. Iso Masih haqidagi rivoyatlar *Yevangeliya (Injil)* nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda bu so'z «Xushxabar» ma'nosini anglatadi. Iso payg'ambar ta'limoti izdoshlari *xristianlardir*. Shogirdlari apostollar (havoriylar) deb atalgan. Xristianlar jamoalariga *yepiskoplar* peshvolik qiladi. **Milodiy I asr** – xristianlik vujudga kelgan sana hisoblanadi.

6-bilet

1. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.

Ulkan imperiyani Konstantinopoldan turib boshqarish mushkul edi. Imperator *Feodosiy* o'limidan so'ng **milodiy 395-yili** Rim imperiyasi uning ikki O'g'li o'rtasida *G'arbiy* va *Sharqiy* qismlarga ajrab ketdi. G'arbiy qismga Italiya, Yevropa va Shimoliy Afrikadagi viloyatlar, Sharqiy qismga esa Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo va Misr yerlari kirgan. Sharqiy Rim imperiyasida imperatorning yagona hokimiyati saqlanib qolgan, G'arbiy Rim imperiyasi esa alohida davlatlarga parchalana boshladi.

2. Neolit davri haqida ma'lumot bering.

Neolit – yangi tosh davrida inson Qadimgi Sharqning turli viloyatlarida *ishlab chiqaruvchi xo'jalik* – dehqonchilik va chorvachilikka o'ta boshlaydi.

Chorvachilik va dehqonchilik neolit davrining eng katta ixtirosi hisoblanadi. O'rta Osiyoda neolit davri **miloddan avvalgi 6 – 4-ming**

yilliklar hisoblanadi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar. Bu davrda qadimgi odamlar mezolit davrida kashf qilingan mayda tosh qurollari – *mikrolitlardan* foydalanib, toshga ishlov berishning oldin ma'lum bo'lmagan silliqlash va parmalash usullarini kashf qilishgan. Neolit davrida qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy turar joylar qura boshlaganlar. Shu davrda paxsadan uylar qurila boshlangan. Asta-sekin urug' jamoalarining manzilgohlari shakllanib borgan. O'troq turmush tarzi va mehnat qurollarining yanada takomillashishi jamoalarning dehqonchilikka o'tib bori shiga imkon yaratgan. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi hunarmandchilikning shakllanishiga olib keldi.

7-bilet

1. Salavkiylar davlati.

Mil. avv. 323-yil Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U barpo etgan davlat uch qismga: Makedoniya, Misr va Suriyaga bo'linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarildi. Uzoq davom etgan o'zaro urushlardan keyin, **mil. avv. 312-yilda kichik** Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri *Salavka* Bobil (Suriya davlati) hukmdori bo'ldi. Salavka davlatining tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona kirar edi.

Salavk o'z davlati tarkibiga kirgan O'rta Osiyoni alohida viloyatlar – satrapliklarga ajratdi. Ularning har biriga boshliq satrap hukmronlik qilar edi. Davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan *strateglar* shug'ullanar edi. Salavk o'z o'g'li Antioxni Sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyonaga noib etib tayinladi. Antiox ulkan davlat boshida turib, uni 20 yilga yaqin boshqardi.

2. Eneolit davri haqida ma'lumot bering.

Neolit davrining oxirida odamlar misdan foydalanishga, undan mehnat qurollari yasashga o'tishdi. Misdan yasalgan mehnat qurollarining tosh qurollar bilan birgalikda ishlatilish davri *eneolit* – *mis-tosh* asri deb ataladi. Bu davr **mil. avv.4 – 3- ming yillikning o'rtalariga** to'g'ri keladi.

Metallurgiya rivoji kishilarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mil. avv. 4-ming yillikda Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi. O'rta Osiyo

janubida *sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik* vujudga keldi, xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshlandi, idishlarni pishirish uchun *kulolchilik xumdonlaridan* foydalanishga kirishildi. Sopol idishlar hayvonlarning, qushlarning tasvirlari va o'simlik naqshlari (yaproqlar, gullar) bilan bezatila boshlandi.

8-bilet

1. Urartu podsholigi.

Urartu davlati Kavkazortidagi, hozirgi Turkiya sharqiy qismida va Armaniston hududlarida joylashgan. Aholisini *urartlar* deyishgan. Yagona davlat tashkil topishini mudofaa qilish zarurati Ossuriya hujumlaridan tezlashtiradi. **Mil. avv. IX–VIII asr boshlarida** Urartu davlati gullab-yashnadi. *Tushpa* shahri Urartu davlati poytaxtiga aylanadi. Urartlar bir necha bosqinchilik yurishlariga chiqadilar va *ossuriyaliklar* ustidan g'alaba qozona dilar. Ammo keyinroq ossuriyaliklarning qo'shinlari urartlarni tor-mor etib tashladi. *Teyshobaini* shahridagi qal'a ish qol etildi va vayron qilib tashlandi. Shundan keyin Urartu podsholigi ancha zaiflashib qoldi.

2. Buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi va uning tarmoqlari.

Milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan edi. Bu yo'l **miloddan avvalgi II asrda** vujudga kelgan va «*Buyuk meridional yo'l*» deb atalgan. Bu yo'lga «Ipak yo'li» degan nom 1877-yilda nemis geografi F. Rixtgofen tomonidan berilgan. Buyuk Ipak yo'li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo'lgan.

9-bilet

1. Kushon davlatining tashkil topishi.

Mil. avv. 140–130-yillar oralig'ida ko'chmanchi *yuechji* qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar. Yuechjilar Baqtriya yerlariga kelib o'rmasadilar va **milodiy I asrda** *Guyshuan* (Kushon) xonadonining boshlag'i barcha yuechji mulklarini o'z hokimiyati ostida birlashtirib, Kushon davlatiga asos soladi. Birlashgan yuechji qabilalarining birinchi hukmdori *Kudzula Kadfi z* bo'lgan. Kudzula Kadfi z hukmronligi davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo'shib olingan. Uning vorisi *Vima Kadfi z* hukmronligi davrida Kushon davlati hududi yanada kengaydi.

Podsho *Kanishka* hukmronligi zamonida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston)ga ko'chiriladi, Kushon podsholigi esa ulkan davlatga aylanadi. Uning hududiga Hindiston, Xo'tan, Afg'oniston va O'zbekistonning janubigacha bo'lgan yerlar kirgan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati ham ulkan podsholiklardan biriga aylangan. To'xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozga uchrashdi va parchalanib ketdi.

2. Mezolit davri haqida ma'lumot bering.

Mezolit davri (o'rta tosh davri) **miloddan avvalgi 12 – 7-ming yilliklarni** o'z ichiga oladi. Mezolit davri boshlanishi bilan Muzlik davri poyoniga yetdi. Bu voqea iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushining o'zgarishiga olib keldi. Mezolit davrida inson *o'q-yoy* yasashni o'rganib oldi. O'q-yoy kashf etilishi bilan odamlarda chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi. Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladi. Ovchilar itni qo'lga o'rgatdilar. Itlar bilan birga ov qilinganda o'lja oldingisiga qaraganda mo'l-ko'l bo'ldi. Tiriklayin tutib olingan hayvonlar (qo'zichoqlar, uloqchalar, to'ng'izchalar)ni endi odamlar o'ldirmasdan, yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo'yadigan bo'ldilar. Mezolit davri oxirida Old Osiyoda xo'jalikning yangi tarmoqlari – **ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik** vujudga keldi.

Bugungi kunda O'rta Osiyoda mezolit davriga oid yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'li tumanlarida, Toshkent vohasida hamda O'zbekistonning janubida bunday manzilgohlar ko'plab uchraydi. *Obishir*, *Qo'shilish* va *Machay* manzilgohlari, shuningdek, *Zarautsoy* darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o'rganilgan.

10-bilet

1. Afina davlati.

O'rta Y unonistonning janubiy sharqiy qismida tog'lik *Attika* viloyati joylashgan y arimorol mavjud edi. **Mil. avv. 2-ming yillikda** Attikaning g'arbiy qismida yunonlar «*Akropol*», ya'ni «*Yuqori shahar*» deb atalgan qal'a quradilar. Borabora Akropol tevaragiga odamlar ko'chib kelib o'rtnasha boshladilar. Shu tariqa Afina shahri vujudga keldi.

Attika aholisi uchta katta guruhga bo'lingan, jumladan: *fuqarolar, chet elliklar – meteklar va qullar*. Otasi va onasi ozod afinalik bo'lgan erkaklarga Afina fuqarosi bo'la olgan. Afina davlati fuqarosi bo'lish faxrli edi. Faqat fuqarolarga barcha huquqlardan foydalana olardilar. Ular og'ir mehnat va salomatlikka zarar yetkazuvchi ishlardan ozod qilingan edilar. Afina davlatiga kumush konlarining mahsuloti va tuz qazib olish katta daromad keltirgan. Bundan tashqari, Afina dengiz ittifoqi mustahkamlanishi bilan dengiz savdosi ham rivoj topadi. Afina ning asosiy portiga aylangan *Pirey* bandargohidan mamlakatga xilma-xil tovarlar bilan qullar ham keltirilgan.

2. Zardushtiylikning vujudga kelishi.

Mil. avv. 1-ming yillikda O'rta Osiyoda *zardushtiylik* deb atalgan din keng tarqaladi. Bu din hali odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagan edi. Zardushtiylik olov, tuproq, suv va yulduzlarga sig'inishgan, ularni muqaddas hisoblashgan. «Zardushtiylik» so'zi ham *Zardusht* (turli tillarda *Zaratushtra, Zoroastr*) ismidan kelib chiqqan. U mil. avv. 1-ming yillikning birinchi yarmida yashab o'tgan tarixiy shaxs. Keyinroq Yunonistonda Zardushtning ismi «Zoroastr» shaklida jaranglaydi (yunoncha «*astron*» – «yulduz»), negaki Yunonistonda uni birinchi galda donishmand, munajjim sifatida bilishgan. Zardushtiylik paydo bo'lishi haqida shunday bir afsona bor. *Bir kuni erta tongda Zardusht suv olish uchun daryo bo'yiga boribdi. Zilol suvda u Ahuramazda elchilaridan birining siymosini ko'rib qolibdi, siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo'l ko'rsatibdi. Zardusht sehirli nur izidan ergashibdi, ko'p o'tmay oliy iloh Ahuramazda qarshisiga borib qolibdi. Ahuramazda xudosi uning ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun Zardushtni tanlaganini ma'lum qilibdi.* Shu tarzda Zardusht 30 yoshida yangi diniy ta'limot payg'ambariga aylangan. «Payg'ambar» so'zining o'zi esa «ezgu amallar haqida xabar beruvchi» ma'nosini anglatadi.

11-bilet

1. Qadimgi Xitoy madaniyati.

Qadimgi Xitoyda o'ziga xos yuksak madaniyat yaratilgan. Mahalliy aholining kundalik hayoti ziroatchilik, hunarmandchilik, binokorlik va boshqa sohalar bilan bog'liq bo'lib, ilmiy bilimlarning rivojlanishini taqozo etgan. Shu tariqa matematika, astronomiya va geografiya fanlari rivoj topgan. Shuningdek, qadimiy xitoyliklar me'morchilik va haykaltaroshilik sohalarida katta yutuqlarga erishganlar. Qadimgi Xitoyda so'z va jumalarni ifodalagan iyeroglif yozuvi mavjud bo'lgan. Avvaliga xitoyliklar bambuk taxtachalarga yozishgan. Bundan 2,5 ming yil muqaddam yozuv uchun bambuk o'rnida shoyidan foydalanishga o'tildi. Shoyi matolariga mo'yqalam bilan yozilgan. Endi kitob uzun shoyi parchasiga o'xshar va tayoqchaga o'ralardi. **Mil. avv. I asrda** esa qog'oz ixtiro qilindi.

2. Qadimgi Misrda nazariy bilimlarning dunyoga kelishi.

Misrda nazariy bilimlarning dunyoga kelishi va rivoj topishi misrliklarning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan. Ziroatchilar qachon urug'likni yerga qadash, qay mahalda hosilni yig'ishtirib olishni bilishi zarur edi. Bu muddatlarni misrliklar yulduzlarga qarab aniqlaganlar. Shu tariqa, astronomiya, ya'ni yulduzlar haqidagi fan dunyoga keldi. Yulduzlarni kuzata turib misrliklar yil davomiyligini 365 kun etib aniq-raso belgiladilar, birinchi bo'lib taqvim tuzdilar, 365 unni esa 30 kundan 12 oyga taqsimladilar, ortib qolgan 5 kunni bayram kunlari sanab, hisobga kiritishmadi.

12-bilet

1. Qadimgi Qang' davlati.

Xitoy manbalaridan bu davlatning *Qang'yuy* deb atalgani ma'lum. **Mil. avv. III asrda** unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Qanqa – Qang'xa shahar-qal'asi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti *Qang'dez* bo'lgan. Xitoy manbalarida bu shahar *Bityan* deb atalgan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan.

Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. U ning hu kmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildir ganlar. Qang' davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etilgan. Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroat chilik va hunarmandchilik madaniyati v ujudga kelgan. Uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi davlat iqtisodining gullab-yashna shi ga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko'chmanchi qabilalar bilan u rushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar (Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqar edilar. Milodiy III asrda Qang' davlati parchalanib ketdi.

2. Misrliklarning mashg'ulotlari haqida ma'lumot bering.

Nil daryosi dalalarni suvga bostirib, keng-mo'l oqqan yillarda misrlik dehqonlarning hosili ham barakali bo'lgan. Misrlik dehqonlar bug'doy va arpa, shuningdek, poliz ekinlarini ekishgan, yetishtirilgan kanopdan esa gazlama to'qishgan. Nil vodiysida uzum, qovun, anor, xurmo, piyoz, bodring, loviya kabi meva va sabzavot yetishtirilardi. Qadimgi zamonda yerga omoch bilan ishlov berib, urug' qo'lda sepilgach, urug'likni yerga singdirish uchun qoramollarni daladan haydab o'tishgan. Mehnat qurollari takomillashishi bilan ziroatchilar omoch va hayvonlar kuchidan foydalana boshlashdi. Misrliklar sigir, qo'y-echki, cho'chqalarni boqishgan. Ziroatchilar ho'kizlardan dala ishlarida foydalanishgan. Misr dehqonlari yerga urug' sochish va hosilni yig'ishtirib olish ishlarini g'ayriodatiy muddatda o'tkazishgan. Iyul-sentabr oylarida ular dam olishar va urug'likni ekishga hozirlashardi. Negaki, bu mahalda barcha dalalarni suv bosardi. Kuzda dalalarga urug' ekilgan. Qishda esa hosil yig'im-terimi boshlangan. Boshloqlarni mis o'roqlar bilan o'rib olib, so'ngra maxsus joyga tashib, bug'doy yoki arpa bog'lamlari ustidan hayvonlarni haydab o'tib, hosilni yanchishgan. Xirmonjoydan chiqqan don spool xumlarda saqlangan. Bu tadbir donni son- sanoqsiz kemiruvchilar – zararkunandalardan omon saqlardi.

13-bilet

1. Yunon-Baqtriya davlati.

Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo'lmish *Diodot* o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan boshlab Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. **Mil. avv. 250-yilda** Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfi ya Baqtriyaning raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyona ham kirgan. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan *Yevtidemga* o'tadi. Yevtidemning o'g'li *Demetriy* hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olindi. Parfi yada hokimiyat *Mitridat I* qo'liga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo'ladiki, bu hol uning kuchsizlanishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan ko'chmanchi *yuehji* qabilalari **mil. avv. 140 –130-yillar** oralig'ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

2. Olimpiya o'yinlarining vujudga kelishi va o'tkazilish tarixi.

Sport barcha yunonlar uchun sevimli mashg'ulot bo'lgan edi. **Mil. avv. 776-yilda** ilk bor Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Ana shu sanadan boshlab har to'rt yilda bir marta Olimp tog'ida muqaddas olov Quyosh nurlaridan yondirilib, Yunonistonning to'rt tarafi dan kelgan sportchilar beshkurashda bellashar edi Beshkurash esa uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, yugurish va kurashdan iborat bo'lgan. Otchoparda aravalarda va otlarda poyga uyushtirilardi edi. Odamlar va

sportchilar Olimpiyaga eson-omon yetib kelishlari uchun o'yinlar o'tkazilayotgan paytda urushlar to'xtatilgan. Yunonistondagi Olimpiya o'yinlari Olimp xudosi Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. Afsonalarga ko'ra, Olimpiya o'yinlari asoschisi Gerakl hisoblangan. Olimpiya o'yinlarida faqat jinoyat sodir etmagan, sha'niga dog' tushirmagan ozod yunon ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Musobaqalarda uch karra g'alaba qozongan sportchi Olimp tog'ida o'z haykalini o'rnatirishga haqli bo'lgan. Yunonlar yil hisobini ham Olimpiya o'yinlariga qarab yuritganlar. G'oliblar muqaddas zaytun daraxti novdalaridan to'qilgan gulchambar bilan taqdirlanganlar. Xristian dini tarqalishi natijasida xudo Zevs sharafiga bag'ishlangan Olimpiya o'yinlari man qilinadi. **Mil. 394-yilda** sodir bo'lgan zilzila oqibatida Olimpiya o'yin maydoni vayron bo'lib, qadimgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish butunlay to'xtab qoladi.

Nihoyat, **1896-yilda** Olimpiya o'yinlari qayta tiklandi. Olimpiya o'yinlari ochiladigan kunda qadimgi mash'ala yoqish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Quyosh nurlaridan yondirilgan mash'ala Olimpiya musobaqalari o'tkaziladigan joyga keltiriladi.

14-bilet

1. Davan davlati haqida ma'lumot bering.

Davan davlati (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi) taxminan, **mil. avv. III asrda** paydo bo'lib, Farg'ona vodiysida joylashgan. Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari behuda ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Davan davlatining poytaxti Ershini qo'lga kiritdilar, biroq aholisining tovon to'lashi evaziga uni tashlab chiqishgan. Davan davlati Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onaning zotli otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular «Samoviy» deb nom berganlar. «*Samoviy otlar*» baquvvat va chopqir bo'lgan. Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqladi. Ko'p sonli aholiga, yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlariga ega bo'lgan Davan **mil. avv. II-I asrlarda** yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan. Davan davlatining *Sho'rabashat*, *Uchqo'rg'on* singari shaharlari atrofi dagi aholi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy III asrda Davan davlati barham topgan.

2. Qadimgi Misr dini haqida ma'lumot bering.

Misr aholisi uchun din kundalik turmushning ajralmas bir bo'lgi hisoblangan. Qadimgi misrliklar xudolar hayvonlar siymosiga o'tib olib, mushuk, qo'y, ho'kiz, arslon, sigir shaklida odamlar orasida yashaydi, deb hisoblashgan. Misrliklar xudolarning bir qancha joni mavjud: ulardan biri hayvon tanasida, boshqasi esa haykalida yashaydi, deb o'ylashgan.

Kohinlar – ibodatxona ruhoniylari, xudolarni dindorlar in'om tariqasida keltirgan narsalar bilan boqish kerak, deb ishonishgan. Qadimgi Misr podsholigining poytaxti *Memfi sning* bosh xudosi – *Ptax* bo'lgan. *Ptax* misrliklar e'tiqodicha, shunchalik qudratliki, uni asl qiyofasida ko'rishning iloji yo'q. Shu sababli ham bu xudoning Yer yuzidagi qiyofasi *Apis* bo'lib, u peshanasi va belida oq qashqasi bo'lgan qora ho'kiz timsolida tasavvur etilgan. Mil. avv. 2-ming yillikdan boshlab esa Quyosh xudosi *Amon-Ra* fi r'avnlarning bosh ilohi va homiysi hisoblangan. Dastavval ikkita xudo bo'lgan: Fiva shahri homiysi Amon va Quyosh xudosi Ra, so'ngra ikkalasi yagona xudoga birlashgan. Fir'avnlr Quyosh xudosining o'g'illari dir, hukmdorlar hamma ishni o'zining samoviy o'tasi amri bilan amalga oshiradi, degan qarash mavjud bo'lgan.

Xapi – Nil xudosi – Misrdagi hayotning birlamchi manbai va posboni, *Osiris* – yerosti saltanati xudosi hisoblangan. Rivoyatda aytilishicha, Osiris Misrning ilk podsholaridan biri bo'lib, o'z xalqini dehqonchilikka o'rgatgan. Bi rodari *Set* esa, Osirisni o'ldiradi. Ammo Osirisning xotini *Isida* uni mumiyolagan va qayta tiriltirgan ekan. O'shandan boshlab jon qaytib keladigan bo'lishi uchun barcha marhumlar mumiyolanadi.

15-bilet

1. Yunon koloniyalarining tashkil topishi.

Qadimgi Yunonistonda odagonlardan qarzdor bo'lib qolgan, o'z yer va mulkiga ega bo'lmagan ko'plab kishilar o'z vatanini tark etishga, begona yurtlarda omadini sinab ko'rishga majbur bo'lganlar. Yersiz, nochor yunonlar safarga chiqishga hozirlana boshlaydilar. Jo'nab ketish oldidan ular xudolarga qurbonliklar bag'ishlashgan. O'zlari bilan birga loy surtilgan qamishdan to'qilgan savatchalarda olov ham olishgan. Olov ayni mahalda ular umrbod tark etgan vatanning bir parchasi edi. **Mil. avv. VIII – VI asrlarda** ko'pdan-ko'p yunon koloniyalari tashkil topdi. Bu davr tarixda *Buyuk Yunon*

koloniyalashtirishi nomini olgan. Qora dengiz sohillarida *Olviya, Xersones, Pantikapey* va boshqa yirik koloniyalar vujudga keldi.

2. Qadimgi Misr yozuvi haqida ma'lumot bering.

Qadimgi misrliklar yozuvi insoniyatning ilk yozuvlaridan biri edi. Avvaliga har bir so'z rasm ko'rinishida yozilgan. Yozuvdan duolar va marosimlarni yozib borishda foydalanishgan. Shuning uchun ham uni «muqaddas» yoki «xudolar kalomi» deb nomlashgan. Qadimgi yunonlar ularni «iyeroglif ar» deyishgan («toshga chekilgan muqaddas bitiklar» ma'nosini ang latadi). Yozuvlar maqbaralarning devorlariga va xudolar haykallariga o'yib yozilgan. Yozuv uchun tosh va sopoldan ham foydalanilgan. Misrliklar alifbosi 750 iyeroglifdan iborat bo'lgan. Har bir so'z o'zida bir qancha ramzlar va timsollarni ifoda etgan. Iyerogliflarni o'rganish ancha qiyin ish bo'lib, savod chiqarish ko'pchilikka ham nasib etavermagan.

16-bilet

1. Qadimgi Xorazm davlati haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. IV asrda Xorazm Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o'lka aholisi xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi miloddan avvalgi VII asrga borib taqaladi (Ko'zaliqir shahri xarobalari). Bu yerda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qal'a bunyod etilgan edi (*Qal'aliqir* shahri xarobalari). Miloddan avvalgi III–II asrlarda *Jonbosqal'a* Xorazmning qadimgi shahri bo'lgan. *Qo'yqirilganqal'a* xarobalaridan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan. Milodiy II–III asrlarda *Tuproqqal'a* shahrida bundan ham ulug'vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan edi. Shahar qudratli mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa, yon-atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan. Qasrdagi saroy devorlari shohlar, lashkarlar, sozandalar, shuningdek, hayvonlar va qushlar tasviri bilan bezatilgan. 20 dan ortiq bo'yalgan loy haykallar zallardan biridagi tokchalarda devor bo'ylab o'rnatilgan. Xorazmda ayniqsa hunarmandchilik yuksak darajada rivoj topgan. Kulolchilik, temir, mis asboblari, qurollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Xorazm aholisi So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va dasht ko'chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o'rnatgan. Bu o'lkadan muhim karvon yo'llari o'tgan. **Mil. avv. I asrda** va milodiy dastlabki asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv Xorazm hududidan topilgan. Bular *Oybo'yirqal'a* (miloddan avvalgi V–IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga bitilgan yozuv va

Qo'yqirilganqal'a dan topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir (miloddan avvalgi III–II asrlar). Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan.

2. Marafon jangi haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 490-yil fors harbiy floti Egey dengizini kesib o'tdi va Attika sohiliga langar tashladi. *Marafon tekisligiga* nayza, xanjar va o'q-yoylar bilan qurollangan fors suvoriylari va piyoda jangchilari kemadan tushadilar. Yunonlar forslarga qaraganda kam sonli edi. Shuning uchun ular fors suvoriylari uchun noqulay bo'lgan qoyali balandliklarga o'rnatilib oldilar. Yunon lashkari forslarni

Attika ichkarisiga boradigan yo'llardan to'sib qo'ydi. Biroq ular ochiq jangga kirishdan cho'chir edilar. Bir hafta o'tdi. Sarkarda Miltiad boshchiligida jangovar falanga tartibida saflangan yunonlar Marafon tekisligida fors qo'shinlariga qarshi hujum boshladilar. Qattiq jangda yunon qo'shinlari forslarni qochishga majbur qildi. Forslar o'z kemalariga qarab chekinishga majbur bo'ldilar. Yunonlar forslarning yettita kemasini egallab olganlar, boshqa kemalar qochib qolgan. Marafon jangidagi g'alabani Afinaga yetkazish uchun bir jangchi shaharga qarab yugurdi. Naq 42 kilometr yo'lni chopib o'tgan jangchi «G'alaba! G'alaba!», deb shu zahotiyoq yuragi yorilib, jon bergan. Keyinchalik olis masofaga yugurish Marafon yugurishi deb atala boshlandi.

17-bilet

1. Ahamoniylar davlati.

Mil. avv. 558-yilda ahamoniylar sulolasidan bo'lmish podsho *Kir II* barcha forslarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Midiya podsholigini bo'ysundirganidan so'ng, Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Armaniston, Lidiya va Bobil zabt etildi.

Forslar O'rtayer dengizi sohiliga chiqdilar, Falastin va Finikiyani bo'ysundirdilar. Kir II ning istilochilik siyosatini vorislari *Kambiz II* va *Doro I* davom ettirdi. Kambiz II Misrni zabt etish orqali Fors davlati hududini nihoyatda kengaytirdi.

2. Doro I ning saklarga qarshi yurishi haqida ma'lumot bering.

Doro I hukmronligining uchinchi yili da saklar ustiga yurish qiladi. Bu yurish haqida ham Behistun bitiklarida shunday deyilgan: «*Shoh Doro ayturki: keyin qo'shin bilan saklar mam lakatiga yurish qildim. Keyin uchi o'tkir kuloh ki yib yu ruv chi saklar jangga kirdilar. Men daryo dan o'tgach, saklarni tamoman tor-mor keltir dim, qolgan qismini asirga ol dim... U larning Skunxa degan sardorini qo'lga tu shirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men u larga boshqa bir sardor tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim. So'ngra bu mamlakat menga tobe bo'ldi*». Ayni paytda bu yurish haqida tarixchi *Poliyen (miloddan avvalgi II asr)* keltirgan boshqa bir rivoyat ham mavjud. *Saklar rivoyatiga asoslanib, unda hikoya qilinishicha, forslarning qoshiga sak qabilasidan bo'lgan cho'pon Shiroq keladi, u fors qo'shinlarini o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan so'qmoq bilan saklarning orqa tomoniga boshlab borishini aytadi. Suvsiz cho'lu-biyobon bo'ylab yetti kun yo'l bosishgach, tashnalikdan do'zax azobini chekayotgan forslar o'zlarining aldanganliklarini sezib qoladilar. Forslar jasur cho'ponni o'ldiradilar, Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.*

18-bilet

1. Sparta.

Mil. avv. XII asrda Janubiy Yunonis ton (*Lakonika*) hududiga *d oriylar* qabilasi bostirib kirdi. Ular Sparta shahar-davlatiga asos soldilar. Sparta eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylandi. Spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi – *ilotlar* ham aslida yunonlar bo'lib, ular bilan bir tilda so'zlashgan. Ilotlar spartaliklardan qattiq nafratlanar edi. Bunday sharoitda o'z hukmronligini faqat kuch bilan saqlab qolish mumkin bo'lgan. Shuning uchun ham spartaliklar o'z davlatlarida alohida shart-sharoitlar yaratdilar, jumladan, hamma qat'iy intizomga amal qilar, yengilganlar shafqatsiz jazolanardi. Sparta urushga tayyorgarlik ko'rayotgan bir shaharga o'xshab qolgan. Chet elliklar Spartaga kiritilmagan. Savdo-sotiq sust rivojlangan, san'at asarlari, chiroyli ibodatxonalar ham bo'lmagan. Hamma uylar bir-biriga o'xshatib qurilgan. Ilotlar kichik-kichik qishloqlarda yashaganlar. Ular butun boshli davlatning mulki hisoblanardilar. Ilotlar alohida spartaliklar oilasi yeriga ishlov berib, chorvani boqishgan va boshqa majburiyatlarni bajarishgan. Spartaliklar esa faqat jangchi edilar. Ular dehqonchilik bilan ham, chorvachilik bilan ham shug'ullanmaganlar.

2. Rim armiyasi haqida ma'lumot bering.

Rimning kuchli go'shini tashqi dushmanlardan himoyalanih va qo'shni mamlakatlarning yerlarini bosib o'lish uchun zarur edi. Dastlab qo'shinga yermulkka ega bo'lgan rimliklar olingan. Keyin chalik qo'shin doimiy harbiy kuchga aylangan. Armiyada 17 yoshga yetgan erkak fuqarolar xizmat

qila olgan. 80 kishidan iborat jangchilar guruhi senturiyalar deb yuritilgan. Bir necha senturiyalar kogortani, 10 ta kogorta legionni tashkil etgan. Jangchilar ning ko'pchiligi yaxshi ta'lim olgan

askarlar bo'lib, ular maosh olishlaridan tashqari kiyim va yarog'-aslahalar bilan ta'minlangan. Xizmat muddati 25 yil bo'lgan. Shuncha muddatdagi xizmati evaziga legio ner uy-joy, durustgina oylik maosh olish va Rim tarkibidagi turli o'lkalarda xizmat qilish imkoniyatlariga ham ega bo'lar edi. Rimliklar o'ziga xos jang olib borish taktikasini ishlab chiqishgan: avvaliga shahar qurshab olinar, so'ngra esa katapulta degan qamal quroli bilan devorlarni teshishar va shaharga bostirib kirishar edi. Pishiq me tal taxtachalardan tiklangan uzun ko'tarma minoralar yordamida baland devorlardan o'shib o'tardilar.

19-bilet

1. Rim shahriga asos solinishi.

Rivoyatga qaraganda, **mil. avv. 753-yilda** Rim shahriga aka-uka *Romul* va *Rem* tomonidan asos solingan. *Dunyo ga kelganlaridan so'ng chaqaloqlarni savatga solib, Tibr daryosi bo'yiga tashlab ketadilar. Daryo bo'yida ularni Ona bo'ri topib olib, emizadi va boqadi. Keyin aka-ukalarni bir cho'pon topib olib tarbiya laydi. Voyaga yetganlarida esa ular Tibr bo'yida shahar barpo etishga ahd qilishadi. Aka-ukalar janjallashib qolib, Romul o'z inisini o'ldirib qo'yadi, shaharga esa o'z nomini beradi.*

2. Mesopotamiya aholisining mashg'ulotlari haqida ma'lumot bering.

Mesopotamiya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Dajla va Frot daryolarining har yilgi toshqinlari mahalida suv bilan birga dalalarga unumdor loyqa oqib kelgan. Mesopotamiyada yog'och va metall singari xo'jalik uchun zarur materiallar bo'lmagan, ammo don mo'l-ko'l yetishtirilgan, chorva mollari ko'p bo'lgan. Shuning uchun Mesopotamiya aholisi savdo-sotiq bilan ham shug'ullanardi. Qo'shni *Kavkazorti* va *Eron* o'lkalaridan donga ayirib olib oltin, mis, kumush, qalayi va noyob toshlarni keltirishardi. Mesopotamiyada turli mahsulotlar va hunar mandchilik buyumlari bilan savdo qilishgan. Metall buyumlar, zeb-ziynatlar, qurolyarog' va kulolchilik buyumlari ayniqsa qadrlangan. Savdo-sotiqda kumush quymasi pul o'rnida ishlatilgan. Mesopotamiyadagi og'irlik o'lchovi «*mino*» 550 gramm kumushga barobar bo'lgan.

20-bilet

1. Qadimgi Italiya tabiiy sharoiti va aholisi.

Apennin yarimorolida iqlim iliq bo'lib, yil bo'yi o'rtacha yomg'ir yog'ardi. Yarimorolni to'liq egallagan *Italiya* zaminida qurg'oqchilik ham, qattiq sovuq ham bo'lmasdi. Yegulik mahsulotlar mo'l-ko'lligi va tuproq unum dorligi tufayli ko'p asrlar davomida qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Qadim zamonlardan boshlab *Apennin* yarimorolida turli xil qabilalar yashagan. *Lig'urlar* Italiyaning qadimgi qabilalaridan biri bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. «*Italiya*» so'zi (yunoncha «*vitulus*» so'zidan) *buqa*, *buzoqcha* ma'nosini bildiradi. **Mil. avv. VIII-VI asrlarda** Italiya sohillarida koloniyalarga asos solgan yunonlar bu mamlakatda sigirlarni o'tlatish uchun ajoyib o'tloqlarni topganlar. *Apennin* yarimorolidagi eng katta daryo *Po* daryosidir. Yarimorolning qabilalari *italiklar* deb nomlangan. Italiyaning shimoli-g'arbiy qismida *etrusklar* yashagan. Ularning asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan.

2. Kushon davlati yozuvi va diniy e'tiqodi haqida ma'lumot bering.

Kushon davlatida yashagan xalqlarning o'zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O'rta Osiyoda qadimgi **oromiy yozuvi** keng tarqaladi. Bu yozuv G'arbiy Osiyoda paydo bo'lib, alifboga asoslangani tufayli o'zlashtirish ancha oson bo'lgan. Qadimgi Termiz yodgorliklarini o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan. Kushon mamlakatida yana kushon shaklli yozuvi mavjud bo'lgan, bunda harflar burchakli, to'rtburchak va aylana shaklida yozilgan. Kushon podshohligida yozuv qadimdan mavjudligini *Surxko'tal* (Afg'onistondagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligidan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi. Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon va Qashqadaryo

vohalarida oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so'g'diy yozuvlari ham keng tarqalgan edi. Yozuvning turli ko'rinishlariga oid topilmalar Kushon podshohligining jahondagi ko'plab davlatlar bilan keng ko'lamdagi aloqalaridan guvohlik beradi.

Diniy e'tiqod Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya, So'g'diyonaning asosiy aholisi zardushtiylik dinida edi. Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo'shib olinib, yaqindan aloqalar o'rnatilgach, Kushon davlati hududiga kirib kelgan buddaviylik dini zardushtiylik bilan birga milodiy VIII asrgacha O'rta Osiyoda saqlanib qoldi. Aynan Surxon vohasi orgali buddaviylik O'rta Osiyo bo'ylab tarqala boshladi.

21-bilet

1. Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi.

Ahamoniylar davlatida davlat boshqaruvi mutloq monarxiya bo'lib, davlatni shahanshoh boshqargan. Shahanshoh cheklanmagan xokimiyatga ega bo'lgan. Saltanat «satrapliklar» deb nomlangan alohida harbiy ma'muriy o'lkalarga taqsimlangan. Satrapliklarga noib etib satraplar tayinlangan. Har bir satrap yillik soliq to'lagan

2. Babil madaniyati haqida ma'lumot bering.

Shumer va Akkad Babil madaniyatining eng qadimiy o'choqlari edi. Jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri bo'lmish Shumer mixxati dastavval «suv», «quyosh» va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan. Hukmdorlar saroylari va ibodatxonalarda zodagonlar va badavlat odamlar oilalarining farzandlari ta'lim oladigan maktablar tashkil qilingandi. O'quvchilar nam *loy taxtachalarga* suyak va yog'ochdan yasalgan tayoqchalar bilan yozganlar. Loy taxtachalar avval oftobda quritilgan, so'ngra xumdonlarda pishirilgan. Bu taxtachalar ilk kitoblar bo'lib, o'quvchilar asotirlar va afsonalarni ko'chirib yozishgan, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va qumursqalar nomlari qayd etilgan ro'yxatlar tuzishgan. Loy taxtachalarda mamlakatlar va shahar nomlari ham sanab o'tilgan. Shumerlar sanoq tizimi, quyosh va oy taqvimlarini ham yaratdilar. Quyosh yili davomiyligi shumerliklar tomonidan 365 kun, oy yili esa 354 kun etib belgilangan. Shumerlik va bobillik kohinlar – munajjimlar astronomiyaga oid bilim larga ega bo'lishgan. Eng qadimgi rasadxonalar baland, ko'pzinali ibodatxonalar – *zikkuratlar* tepalikdagi maydonchada barpo etilgan. Mesopotamiyada turli-tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo'yicha dasturilamal tuzilgan. Geografiya sohasidagi bilimlar shumerliklar va bobilliklarga kemalarda dengiz bo'ylab suzishga imkoniyat yaratib bergan. Olam yaratilishi haqidagi eng qadimiy asotirlardan biri Mesopotamiyada yaratilgan.

22-bilet

1. Qang' davlati.

Xitoy manbalaridan bu davlatning *Qang'yuy* deb atalgani ma'lum. **Mil. avv. III asrda** unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Qanqa – Qang'xa shahar-qal'asi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti *Qang'dez* bo'lgan. Xitoy manbalarida bu shahar *Bityan* deb atalgan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan. Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. U ning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildirganlar. Qang' davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etilgan. Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroat chilik va hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan. Uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi davlat iqtisodining gullab-yashna shi ga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko'chmanchi qabilalar bilan u rushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar (Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqar edilar. Milodiy III asrda Qang' davlati parchalanib ketdi.

2. Doro I ning islohotlari haqida ma'lumot bering.

Doro I butun mamlakat uchun «darik» deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritdi. U qadimgi Fors podsholigi qarorgohi Persepol shahridan O'rtayer dengiziga qadar «shoh yo'li» degan savdo yo'lini qurdirgan edi. Doro I qo'shinlarni qaytadan tuzdi, saltanatni «satrapliklar» deb nomlangan alohida harbiy ma'muriy o'lkalarga taqsimladi.

23-bilet

1. Qadimgi Hindiston hududi va tabiiy sharoiti.

Hindiston mamlakati shu nomdagi yarimorol hamda Osiyo qit'asining *Hind* va *Gang* daryolari vodiylarining bir qismini egallagan. Iqlimining issiqligi va keng yoyilib oqadigan daryolar suv bilan birga serunum loyqani oqizib kelishi dehqonchilik vujudga kelishi va rivoj topishi uchun imkoniyat yaratdi. Himolay tog'lari shimolisharqdan dushmanlar va sovuq shamollar tajovuzidan o'ziga xos tabiiy «mudofaa devori» bo'lib xizmat qilgan. Gang vodiysidagi tropik o'rmonlar ulkandaraxtlar va rang-barang o'simliklarga boy bo'lgan.

2. Puni urushlari haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib, Rim butun Italiyani zabt etishga erishdi. Shu tariqa Rim davlatining hududi kengayib bordi. Bu paytda *Shimoliy Afrikaning* sohillarini, *Sardiniya*, *Korsika* orollarini o'z ichiga olgan qudratli davlat – *Karfagen* quldorlari Sitsiliya orolining g'arbiy qismini egallab olgan edilar. Aynan Sitsiliya masalasi Rim va Karfagen

o'rtasidagi urush boshlanishiga sabab bo'ladi. Rimliklar Karfagen bilan uch marotaba urushdilar. Bu urushlar tarixga *Puni urushlari* nomi bilan kirgan edi, negaki, rimliklar Karfageni Puna deb atashardi. Birinchi urushda rimliklar g'alaba qozondilar va Sitsiliyani bosib olib, karfagenliklarni o'zlariga o'lpon to'lashga majbur qildilar. Karfagen quldorlari Ispaniyaning katta qismini bosib oldilar. Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda *Gannibal* boshchilik qilardi. Gannibal qo'shinlarining Ispaniyadan Italiyaga qarshi yurishlari tufayli ikkinchi Puni urushi boshlandi. Karfagen armiyasi *Alp* tog'lari etaklariga yetib bordi. O'tib bo'lmasdek tuyulgan tog'lardan oshgan Gannibal Shimoliy Italiya hududiga bostirib kirdi va **mil. avv. 216-yilda** *Kann* yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etdi. Bu jangda 70 ming rimlik legioner halok bo'lgan. Mag'lubiyatdan keyin rimliklar hal qiluvchi janglarga botina olmaganlar. Italiya aholisi Gannibalni qo'llab-quvvatlamadi, chunki Karfagen yollanma qo'shinlari mamlakatni talontaroj qilib tashlagan edi. Rimlik sarkarda *Sspionning* kutilmaganda o'z qo'shinlari bilan Afrika qirg'og'iga kelib tushganidan xabar topgan Gannibal Karfageni himoya qilishga o'tlanadi, ammo **mil. avv. 202-yilda** uning lashkari *Zama* shahri yaqinida (Shimoliy Afrika) rimliklar tomonidan tor-mor etildi.

Karfagen Rimga taslim bo'lib, katta miqdordagi boylik bilan tovon to'lashi kerak edi. Biroq vaqt o'tib, Karfagen o'z qudratini tiklashga harakat qiladi. Uchinchi Puni urushida rimliklar Karfageni qamal qildilar. Shahar aholisi ikki yil Karfageni mudofaa qildi, shaharda ochlik boshlandi. Rimlik legionerlar shaharga hujum qilib, o't qo'yishar edi. Shunday qilib, **mil. avv. 146-yilda** Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi. Rim qo'shinlari esa g'alaba sururi, talangan o'lja va minglab qullar bilan Italiyaga qaytib keldilar.

24-bilet

1. Rim respublikasining qulashi haqida ma'lumot bering.

Qullar qo'zg'olonlari quldorlarni qattiq qo'rquvga solib qo'ydi. Quldorlar qarshisida kuchli hokimiyat bo'lmish *harbiy diktatura* o'rnatilishi zarurligi to'g'risidagi masala ko'ndalang turar edi. Senatorlar va kam sonli mansabdor shaxslar ulkan davlatni risoladagidek boshqarishni ta'minlay olmas edilar. **Mil. avv. I asrda** muntazam yollanma qo'shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandilar. Yollanma askarlarni Rimning harbiy kuch-qudrati va davlatning kuchayishi emas, faqat o'lja qiziqtirardi. Yollanma askarlar uchun kimlar bilan jang qilish yoki kimlarni talashning farqi bo'lmagan. Rimda esa davlat boshlig'i bo'lishni xohlovchi bir qancha sarkardalar bor edi.

2. Yunon-fors urushlari.

Mil. avv. V asr boshlarida Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Doro I hukmronlik qilayotgan Fors davlati yangi-yangi mamlakatlarni bosib olishga intilgan. Yunonistonning barcha shaharlarida fors elchilari paydo bo'lib, ular: «*Bizning hukmdorimiz, buyuk shahanshoh Doro, kunchiqardan kunbotargacha barcha mamlakatlarning birdan- bir egasi sizdan yer va suv talab qilmoqdadir*», deb baralla aytishardi. Yunonistondagi ayrim shaharlar aholisi forslarga qarshilik ko'rsatishning sira iloji yo'q deb hisoblab, shoh Doro I ning shartlarini qabul qilishga rozi edilar.

Afina va Sparta bosqinchilarga itoat etmaslikka ahd qildi. Fors elchilari Afi naga kelganda, shahar aholisi g'azabdan ularni o'ldirib, qoyadan tashlab yubordilar. Elchilarni chuqur quduqqa tashlab yuborgan spartaliklar esa zaharxandalik bilan: «*Suvni ham, yerni ham quduq tubidan yetarlicha olasizlar*» deyishgan ekan. Fors shohi dastlab Kichik Osiyodagi yu non shaharlarini bosib olib.

25-bilet

1. Elam davlati.

Mil. avv. 3-ming yillikda Eronning janubi-g'arbiy qismida *Elam davlati* vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti *Suza* shahri bo'lgan. Elamda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgan. Kaspiy dengizidan janubi-g'arbda joylashgan *Midiyada* qabilalar ittifoqlari vujudga keldi. **Mil. avv. VII asrda** podsho *Kiaksar* hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi. Midiya davlati Babil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oladi. Eronning janubida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda Fors viloyati – qadimgi forslar o'mashgan o'lka joylashgan.

2. Gladiatorlar janglari haqida ma'lumot bering.

Rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri *gladiatorlar* jangi bo'lgan. Aksariyat gladiatorlar qullar yoki jinoyatchilar bo'lishgan. Ularga maxsus yopiq maktablarda ta'lim berishar, so'ngra tomoshabinlar ko'nglini xushlash uchun bir-birlari bilan olishishga majbur qilishar edi. Har bir gladiatorning hayot-mamoti tomoshabinlar xohish-istagiga bog'liq edi. Jang so'ngida tomoshabinlar yengilgan gladiatorning tirik qolish-qolmasligini hal qilishardi. Agar tomoshabinlarning ko'pchiligi o'ng qo'lining bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarsa – yengilgan gladiator tirik qolar, aksincha, pastga qaratishsa – u tomoshabinlar ko'z o'ngida o'ldirilardi. Janglar ulkan tosh stadionlar – *amfi teatrlarda* bo'lib o'tardi. 50 ming tomoshabin sig'adigan *Kolizey* eng katta amfi teatr hisoblangan. Ba'zida gladiatorlar katta-katta guruhlarga bo'linib jang qilishgan, shunda sahna jang maydonigao'xshab qolar edi: o'ldirilgan, yaralangan va jon berayotgan gladiatorlar hammayoqda ag'anab yotardi. Yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun gladiatorlar janglari kuchi teng raqiblar o'rtasida o'tkazilgan. Biri faqat qilich va qalqon bilan, boshqasi esa to'r va changak (uch ayrili nayza) bilan qurollangan. To'r va changak bilan qurollangan gladiator o'zini hech narsa bilan himoya qila olmasa ham, u ra qibini to'r bilan o'rab tashlashi va changak bilan o'ldirishi mumkin edi. Gladiatorlarning yovvoyi arslonlar, qoplonlar, darg'azab ho'kizlar bilan olishuvlari ham o'tkazilgan.

26-bilet

1. Midiya davlati haqida ma'lumot bering.

Kaspiy dengizidan janubi-g'arbda joylashgan *Midiyada* qabilalar ittifoqlari vujudga keldi. **Mil. avv. VII asrda** podsho *Kiaksar* hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi. Midiya davlati Babil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oladi. Eronning janubida, Fors ko'rfaziga tutashib ketgan yerlarda Fors viloyati – qadimgi forslar o'mashgan o'lka joylashgan.

2. Kir II ning massagetlar hududiga bostirib kirishi.

Mil. avv. 530-yilda Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish qildi. Bu yurish to'g'risida «tarix otasi» Gerodot hikoya qilib bergan. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida ularning malikasi *To'maris* bosqinchilarga tinch-omon qaytib ketishni taklif qiladi. Ammo fors shohi bu taklifni rad etadi va Amudaryodan kechib o'tishni boshlash to'g'risida farmon beradi. Gerodot massagetlarning asosiy kuchlari bilan forslarning jangi to'g'risida shunday hikoya qiladi: «*Bu jang... barcha janglardan ham dahshatliroq edi. Avval har ikki dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib, dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Hech kim chekinishni xayoliga*

keltirmasdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning qo'li baland keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi».

27-bilet

1. Qadimgi Mesopatamiyadagi shahar-davlatlar haqida ma'lumot bering.

Mesopotamiyada *Uruk, Umma, Lagash, Ur* va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi. Ular shahar va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan *shahar-davlatlar* edi. Har bir shaharning hukmdori oliy xudo –shahar homiysi hisoblangan. Xudo nomidan kohinlar hukmronlik qilgan. Xudolar ibodatxonasi esa davlatdagi hokimiyat markazi bo'lgan. Mesopotamiyaning qadimiy ibodatxonalari *zikkuratlar* xom g'ishtdan terib chiqilgan muhtasham zinapoyali inshoot bo'lgan.

2. Spartak qo'zg'oloni haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 74-yilda boshlangan *Spartak* boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo'zg'olonlardan biri bo'ldi. Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan frakiyalik qul Spartak qullarni qo'zg'olon ko'tarishga undadi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdorlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular *Vezuviy* tog'idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo'shila boshladi va qo'zg'olon ko'targanlar safi kengaya bordi. Ko'p o'tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi. Qo'zg'olon ko'targan qullarni tor-mor etishga jo'natilgan uch ming kishilik qo'shin *Vezuviy* tog'lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshlandi. Spartak kutilmaganda dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to'qib, ko'rinmaydigan tarafdin cho'qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergan Spartak ularni tor-mor etdi. Ammo ko'p o'tmay qo'zg'olon ko'targanlar orasida ixtilof paydo bo'ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o'z yurtlariga qaytishni Afzal bildilar. Ko'pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldorlardan qasos olishga ahd qilishdi. Spartakka qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchiligidagi ko'p ming sonli qo'shin jo'natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro'y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tormor etildi, uning o'zi esa ana shu jangda halok bo'ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig'idagi yo'l bo'ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi.

28-bilet

1. Rimga asos solinishi.

Rivoyatga qaraganda, **mil. avv. 753-yilda** Rim shahriga aka-uka *Romul* va *Rem* tomonidan asos solingan. *Dunyo ga kelganlaridan so'ng chaqaloq larni savatga solib, Tibr daryosi bo'yiga tashlab ketadilar. Daryo bo'yida ularni Ona bo'ri topib olib, emizadi va boqadi. Keyin aka-ukalarni bir cho'pon topib olib tarbiya laydi. Voyaga yetganlarida esa ular Tibr bo'yida shahar barpo etishga ahd qilishadi. Aka-ukalar janjallashib qolib, Romul o'z inisini o'ldirib qo'yadi, shaharga esa o'z nomini beradi.*

2. Marafon jangi haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 490-yil fors harbiy floti Egey dengizini kesib o'tdi va Attika sohiliga langar tashladi. *Marafon tekisligiga* nayza, xanjar va o'q-yoylar bilan qurollangan fors suvoriylari va piyoda jangchilari kemadan tushadilar. Yunonlar forslarga qaraganda kam sonli edi. Shuning uchun ular fors suvoriylari uchun noqulay bo'lgan qoyali balandliklarga o'rnashib oldilar. Yunon lashkari forslarni Attika ichkarisiga boradigan yo'llardan to'sib qo'ydi. Biroq ular ochiq jangga kiritishdan cho'chir edilar. Bir hafta o'tdi. Sarkarda Miltiad boshchiligidagi jangovar falanga tartibida saflangan yunonlar Marafon tekisligida fors qo'shinlariga qarshi hujum boshladilar. Qattiq jangda yunon qo'shinlari forslarni qochishga majbur qildi. Forslar o'z kemalariga qarab chekinishga majbur bo'ldilar. Yunonlar forslarning yettita kemasini egallab olganlar, boshqa kemalar qochib qolgan. Marafon

jangidagi g'alabani Afinaga yetkazish uchun bir jangchi shaharga qarab yugurdi. Naq 42 kilometr yo'lni chopib o'tgan jangchi «G'alaba! G'alaba!», deb shu zahotiy oq yuragi yorilib, jon bergan. Keyinchalik olis masofaga yugurish Marafon yugurishi deb atala boshlandi.

29-bilet

1. Rim respublikasida davlat boshqaruvi haqida ma'lumot bering.

Rim hukmdorlari muhim masalalarni muhokama qilish uchun *Xalq majlisini* chaqirganlar. Xalq majlisi urush e'lon qilar, sulh tuzar, qonunlarni tasdiqlar va bekor qilar, barcha muhim mansabdor shaxslarni tayinlar edi. Bu majlisning qarorini *Senat* tasdiqlagan, lotinchadan tarjima qilinganda «senat» so'zi «*oqsoqollar kengashi*» degan ma'noni anglatadi. Rimning tub aholisi *patritsiylar*, Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning avlodlari *plebeylar* deb atalgan. Rim boshqaruvida faqat patritsiylar ishtirok eta olar edi. **Mil. avv. VI asr oxiridan** Rim davlati *respublika* deb yuritila boshlangan. Lotinchadan tarjima qilinganda «respublika» so'zi «*xalq ishi, umumiy ish*» degan ma'nolarni anglatadi («res» – ish, «publika» – xalq). Xalq majlisi patritsiylardan ikki kishini bir yil muddatga hokim qilib saylagan. Ular *konsullar* deb atalgan.

Badavlat odam turli yo'llar bilan saylovchilarni o'z tarafiga og'dirib, bepul tushlik uyushtirishgan, sovg'a-salom tarqatishgan va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishgan. Saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'ygan badavlat kishilar «*kandida*» deb ataluvchi oq-harir libos kiyib olishgan. Hozirgi «*kandidat*», ya'ni qandaydir lavozimni egallashga harakat qiluvchi nomzod shaxs ma'nosini beruvchi so'z ham «*kandida*» danielib chiqqan. Oq rang nomzodning vijdoni ham uning libosidek beg'ubor va pokiza bo'lishi kerakligini bildirgan Senat mamlakatda katta hokimiyatga ega bo'lgan. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan turib, Xalq majlisi tomonidan qabul qilinmasdi. Asosiy mansabdor shaxslar – konsullar esa bevosita davlatni boshqarar edilar. Qadimda eng tajribali va hurmatli kishilar Senatda o'rin egallagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan konsullar hech bir saylovsiz Senatda o'rin egallab oladigan va uning umrbod a'zosiga – *senatorga* aylanadigan mavqega erishdilar. Urush boshlangan taqdirda yoki xalq qo'zg'olon ro'y berganda *diktator* va uning o'rinbosari qo'shinlar boshlig'i etib tayinlanardi. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Ammo u hokimiyatda olti oydan ko'p tura olmas edi. Yunonlarning dengizdagi sayohatlari haqida ma'lumot bering.

30-bilet

1. Yunon shaharlari haqida ma'lumot bering.

Yunonstonda dehqonchilik va humarmandchilik rivoj topishi bilan shaharlar soni ham ortib boradi. Yunon shaharlarining ko'pchiligi bir q ancha manzilgohlar birlashishi yo'li bilan tashkil topadi. Bunday shaharlar yunoncha «polis», ya'ni «shahar» deb atalgan. Ular shahardavlatlarni tashkil etgan. Barcha shahar-davlatlar o'z qo'shinlariga ega bo'lgan. Polislar bir-birlari bilan tez-tez urushib turganlar. Shu sababli yunonlar askarlarga ta'lim-tarbiya berishga va durust qurollantirishga intilar edilar. Qo'shinlarning asosini og'ir qurollangan askarlar – *goplitlar* tashkil etgan. Ular to'rtbur chak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga zich joylashgan qatorlar bilan jang qilishgan. Bundayjangovar safga tizilish *falanga* deb atalgan.

2. Qadimgi Xitoy aholisi mashg'ulotlari.

Dehqonchilik Xitoyda azaldan e'tiborli va faxrli kasb hisoblab kelingan. Asosiy dehqonchilik ekinlari javdar va bug'doy bo'lgan. Keyinchalik xitoyliklar sholi yetishtira boshladilar, sholi urug'i Hindistondan keltirilgan. Xitoy aholisi «choy» daraxtini ham yetishtirganlar, uning barglaridan shifobaxsh ichimlik bo'lmish «choy» tayyorlanadi. Choy tez orada butun jahonga tarqaldi. Tut daraxtini yetishtirish Xitoy aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Tut bargi bilan ipak qurti boqiladi. Ipak qurtlari pillalarga tolalarni o'raydi, pilladan esa nihoyatda yengil va nafs mato bo'lmish ipak shoyi tayyorlanadi.

31-bilet

1. Xett podsholigi.

Taxminan **mil. avv. XVIII asrda** Kichik Osiyo markazida (hozirgi Turkiya hududida) *xetlar* degan shimollik xalq o'z davlatiga asos soladi. *Xattusa* shahri ana shu davlatning poytaxti bo'lgan. Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik edi. Xetlar qo'shni mamlakatlar bilan doimiy urushlar olib borishgan. Jangovar aravalar va temir uchli nayzalardan foydalanishgan. Hozirgi Suriya hududida vujudga kelgan qo'shni *Mitanni podsholigi* xetlarning xavfli raqibiga aylandi. Urushlarda mitanniliklar otliq qo'shndan foydalanishgan. Tarixda nomlari noma'lum xalqlar (ularni

«*dengiz xalqlari*» deb atashgan) xetlar poytaxtini bosib olib, shaharni butunlay vayronaga aylantirdilar. Davlat nuradi, xetlar esa boshqa xalqlarga singishib ketdi.

2. Makedoniyalik Aleksandrning istilochilik yurishlari haqida ma'lumot bering.

Aleksandr **miloddan avvalgi 336-yilda** Makedoniya podshosi bo'ladi. Shu yili u 20 yoshga to'lgan edi. *Makedoniyalik Aleksandr* g'ayrioddiy kuch-g'ayrat va jasurlik sohibi bo'lgan. Safdoshlari va qo'shinlari unga nihoyatda sadoqatli edi. **Mil. avv. 334-yilda** u Sharqqa yurish boshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi. Makedoniyalik Aleksandr ulkan hududda o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi. **Mil. avv. 330-yilda** Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan oxirgi shoh *Doro III ning* qo'shinlarini tor-mor keltirdi. O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urindi, biroq uncha katta bo'lmagan hududni: Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, hozirgi Bekobod va Xo'jand orasida Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishgamuvaffaq bo'ldi, xolos. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona mustaqilligicha qoldi.

32-bilet

1. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.

Gotlarning Rimni ishg'ol etishi imperiya aholisini larzaga soldi. Yuz yillar davomida rimliklar o'zlarining barcha raqiblari ustidan g'alaba qozonishgan, o'zlarini jahon hukmdori hisoblashgan. Rimni esa «*boqiy shahar*» deya ta'rifi agan edilar. Rim aholisining ko'pchiligi Rim zavolga yuz tutishi bilan butun jahon nes-nobud bo'lib ketishiga ishonar edi. Alarix ham o'ldi, biroq Rimning undan dahshatliroq dushmani – *Attila* boshchili gidagi *xunn* qabilalari paydo bo'ldi. Attila Sharqiy Rim imperiyasiga hujum uyushtira boshladi. **Milodiy 452-yilda** xunnlar Italiyaga bostirib kirdilar. **Milodiy 455-yilda** Rimga germanlarning *vandal* qabilalari hujum qildi. Ular ikki hafta davomida shaharni taladilar. Vandallar o'zlaribilan olib ketolmaydigan hamma narsani nobud qildilar. Milodiy 476-yilda german qabilalarining Rimdagi yollangan qo'shini sarkardasi *Odoakr* so'nggi imperator *Romulni* taxtdan ag'darib tashladi va imperator unvoni nishonini Konstantinopolga jo'natdi. Sobiq G'arbiy Rim imperiyasi sarhadlarini german qabilalari egallab oldilar. Shu tariqa **milodiy 476-yil** G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va qadimgi dunyo tarixining yakunlanish sanasi sifatida qayd qilindi. Mazkur sanadan boshlab o'rta asrlar tarixi boshlanadi.

2. Kushon davlati me'morchiligi va san'ati haqida ma'lumot bering.

Kushonlar davrida binokorlik va me'morchilik yuksak darajada taraqqiy etgan. Dalvarzintepa va Eski Termiz singari shaharlar xom g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkom devorlari bilan o'ralgan edi. Shaharlarning o'zi hunarmandlar mahallalariga va turar joy mavzellariga ajratilgan. *Xolchayondagi* kushon hukmdorlari saroyi, Eski Termiz (*Qoratepa, Fayoztepa*) va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalarida o'sha davr devoriy tasvirlari va haykaltaroshlikning yuksak san'at namunalari o'rganilgan. Shahzodalar, saroy a'yonlari, jangchilar tasviri, Budda haykali va Ayritomda topilgan do'mbirachi hamda ud cholg'u asbobini chalayotgan musiqachilar tasvirlari shular jumlasidandir. Kandakorlik yuqori rivojlangan. Dalvarzintepadan fi l

suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan. Kushon san'atida mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunoniston ellinistik san'ati uslublari muvofiqlashgan.

33-bilet

1. Afinada demokratiyaning ravnaq topishi.

Afi na shahrida markaziy maydon bo'lib, uning tevaragini turli-tuman imoratlar qurshab turgan. Maydon esa *agora* deb yuritilgan. U xalq yig'ini maydoni bo'lgan. Shahar aholisining ko'pchiligini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etgan. Afi na shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o'z fi kr-mulohazalarini bayon eta olar edilar. Ular yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilish uchun har oyda to'rt marta agorada yig'ilardilar. Barcha qarorlar ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan. Boshqaruvning bu shakli *demokratiya* deb ataladi, ya'ni bu atama «*xalq hokimiyati*» degan ma'noni anglatadi («*demos*» – xalq + «*kratos*» – hokimiyat).

2. Puni urushlari haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib, Rim butun Italiyani zabt etishga erishdi. Shu tariqa Rim davlatining hududi kengayib bordi. Bu paytda *Shimoliy Afrikaning* sohillarini, *Sardiniya*, *Korsika* orollarini o'z ichiga olgan qudratli davlat – *Karfagen* quldorlari Sitsiliya orolining g'arbiy qismini egallab olgan edilar. Aynan Sitsiliya masalasi Rim va Karfagen o'rtasidagi urush boshlanishiga sabab bo'ladi. Rimliklar Karfagen bilan uch marotaba urushdilar. Bu urushlar tarixga *Puni urushlari* nomi bilan kirgan edi, negaki, rimliklar Karfagenni Puna deb atashardi. Birinchi urushda rimliklar g'alaba qozondilar va Sitsiliyani bosib olib, karfagenliklarni o'zlariga o'lpon to'lashga majbur qildilar. Karfagen quldorlari Ispaniyaning katta qismini bosib oldilar. Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda *Gannibal* boshchilik qilardi. Gannibal qo'shinlarining Ispaniyadan Italiyaga qarshi yurishlari tufayli ikkinchi Puni urushi boshlandi. Karfagen armiyasi *Alp* tog'lari etaklariga yetib bordi. O'tib bo'lmasdek tuyulgan tog'lardan oshgan Gannibal Shimoliy Italiya hududiga bostirib kirdi va **mil. avv. 216-yilda** *Kann* yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etdi. Bu jangda 70 ming rimlik legioner halok bo'lgan. Mag'lubiyatdan keyin rimliklar hal qiluvchi janglarga botina olmaganlar. Italiya aholisi Gannibalni qo'llab-quvvatlamadi, chunki Karfagen yollanma qo'shinlari mamlakatni talontaroj qilib tashlagan edi. Rimlik sarkarda *Ssipionning* kutilmaganda o'z qo'shinlari bilan Afrika qirg'og'iga kelib tushganidan xabar topgan Gannibal Karfagenni himoya qilishga otlanadi, ammo **mil. avv. 202-yilda** uning lashkari *Zama* shahri yaqinida (Shimoliy Afrika) rimliklar tomonidan tor-mor etildi. Karfagen Rimga taslim bo'lib, katta miqdordagi boylik bilan tovon to'lashi kerak edi. Biroq vaqt o'tib, Karfagen o'z qudratini tiklashga harakat qiladi. Uchinchi Puni urushida rimliklar Karfagenni qamal qildilar. Shahar aholisi ikki yil Karfagenni mudofaa qildi, shaharda ochlik boshlandi. Rimlik legionerlar shaharga hujum qilib, o't qo'yishar edi. Shunday qilib, **mil. avv. 146-yilda** Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi. Rim qo'shinlari esa g'alaba sururi, talangan o'lja va minglab qullar bilan Italiyaga qaytib keldilar.

34-bilet

1. Karfagen davlati.

264—146 yillardagi Puni urug'lari natijasida **Karfagen davlati** barham topgan. Tunis Rim imperiyasining Afrikadagi mulkiga aylangan. 439 yil barbarlar va qo'zg'olonchi dehqonlar ko'magida Karfagenni vandamar bosib olgan. Rimliklar Karfagen bilan uch marotaba urushdilar. Bu urushlar tarixga Puni urushlari nomi bilan kirgan edi, negaki rimliklar Karfagenni Puna deb atashardi. Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda *Gannibal* boshchilik qilardi. Rim armiyasini esa sarkarda *Ssipion* boshqargan. Karfagen Rimga taslim bo'lib, katta miqdordagi boylik bilan tovon to'lashi kerak edi. Biroq vaqt o'tib, Karfagen o'z qudratini tiklashga harakat qiladi.

Uchinchi Puni urushida rimliklar Karfagenni qamal qildilar. Shahar aholisi ikki yil Karfagenni mudofaa qildi, shaharda ochlik boshlandi. Rimlik legionerlar shaharga hujum qilib, o't qo'yishar edi. Shunday qilib, mil. avv. 146-yilda Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi. Rim qo'shinlari esa g'alaba sururi, talangan o'lja va minglab qullar bilan Italiyaga qaytib keldilar.

2. Gotlarning Rimga hujumi haqida ma'lumot bering.

Gotlarning Rimni ishg'ol etishi imperiya aholisini larzaga soldi. Yuz yillar davomida rimliklar o'zlarining barcha raqiblari ustidan g'alaba qozonishgan, o'zlarini jahon hukmdori hisoblashgan. Rimni esa «*boqiy shahar*» deya ta'rifi agan edilar. Rim aholisining ko'pchiligi Rim zavolga yuz tutishi bilan butun jahon nes-nobud bo'lib ketishiga ishonar edi.

35-bilet

1. Ossuriya podsholigi.

Qadim zamonlarda ossuriyaliklar Frot va Dajla daryolari yuqori oqimidagi kichik hududni egallashgan. Avval *Oshshur* shahri, keyin esa *Nineviya* shahri poytaxt bo'lgan. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va savdo-sotiq edi. Ossuriyaliklar jangari xalq bo'lgan. Ular qo'shni yerlarga tez-tez hujum qilib turardilar. Ossuriyaliklarning qudratli lashkari har yili yangi yerlarni zabt etishga erishganlar. Bo'ysundirilgan xalqlar Ossuriya hukmdoriga katta miqdorda o'lpon to'lagan. Shaharni bosib olgan ossuriyaliklar qal'a devorlarini, uylar va ibodatxonalarini buzib tashlab, aholini asirlikka haydab ketganlar. Yurishlarda raqiblardan tortib olingan hamma narsa poytaxtga oqib kelar edi. Ulug'vor saroylar va ibodatxonalar boylikka to'lib ketgan. *Oshshurbanapal* hukmronligi davrida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik sopol taxtachalardan iborat kutubxona jamlangan edi. Asta-sekin Ossuriya davlati zaiflashib bordi. **Mil. avv. 605-yilda** Ossuriya qo'shinlari Babil va Midiya tomonidan qirib tashlangandan keyin davlat zavolga yuz tutdi.

2. Zardushtiylikning tarqalishi haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 1- ming yillikda O'rta Osiyoda *zardushtiylik* deb atalgan din keng tarqaladi. Bu din hali odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagan edi. Zardushtiylik olov, tuproq, suv va yulduzlarga sig'inishgan, ularni muqaddas hisoblashgan. «Zardushtiylik» so'zi ham *Zardusht* (turli tillarda *Zaratushtra*, *Zoroastr*) ismidan kelib chiqqan. U mil. avv. 1-ming yillikning birinchi yarmida yashab o'tgan tarixiy shaxs. Keyinroq Yunonistonda Zardushtning ismi «Zoroastr» shaklida jaranglaydi (yunoncha «*astron*» – «yulduz»), negaki Yunonistonda uni birinchi galda donishmand, munajjim sifatida bilishgan. Zardushtiylik paydo bo'lishi haqida shunday bir afsona bor. *Bir kuni erta tongda Zardusht suv olish uchun daryo bo'yiga boribdi. Zilol suvda u Ahuramazda elchilaridan birining siymosini ko'rib qolibdi, siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo'l ko'rsatibdi. Zardusht sehrli nur izidan ergashibdi, ko'p o'tmay oliy iloh Ahuramazda qarshisiga borib qolibdi. Ahuramazda xudosi uning ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun Zardushtni tanlaganini ma'lum qilibdi.* Shu tarzda Zardusht 30 yoshida yangi diniy ta'limot payg'ambariga aylangan. «Payg'ambar» so'zining o'zi esa «ezgu amallar haqida xabar beruvchi» ma'nosini anglatadi.

36-bilet

1. Qang' davlati.

Xitoy manbalaridan bu davlatning *Qang'yuy* deb atalgani ma'lum. **Mil. avv. III asrda** unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Qanqa – Qang'xa shahar-qal'asi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti *Qang'dez* bo'lgan. Xitoy manbalarida bu shahar *Bityan* deb atalgan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan. Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. U ning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildirganlar. Qang' davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etilgan. Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroat chilik va hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan. Uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy

tarmog'i o'tganligi davlat iqtisodining gullab-yashna shi ga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko'chmanchi qabilalar bilan u rushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar

(Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqar edilar. Milodiy III asrda Qang' davlati parchalanib ketdi.

2. Xitoydagi xalq qo'zg'olonlari haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 206-yilda Sin sulolasiga qarshi dehqonlar qo'zg'oloniga *Lyu Ban* boshchilik qilgan. Qo'zg'olonchilar poytaxtni egallab oladilar. Shu tariqa Sin podsholigi tugatildi va *Xan* sulolasi hukmronligida yangi davlat barpo etildi. Bu sulola davlati *U-Di* hukmronligi davrida eng qudratli davlatga aylandi. Sharqning boshqa davlatlaridagi kabi Xitoyda ham mavjud yerlar hukmdorniki hisoblangan, aholi soliqlar to'lab, turli mehnat majburiyatlarini bajarishgan. Og'ir mehnat evaziga yetishtirilgan hosil ko'pincha dehqonning o'ziga nasib etavermasdi. Jabr-zulm hamisha xalqning noroziligini kuchaytirib yuboradi. Davlatning turli joylarida qo'zg'olonlar boshlanib ketadi. Ulardan biri milodning boshlarida «qizil qoshlilar» qo'zg'oloni nomini olgandi, chunki qo'zg'olon ko'targanlar o'z odamlarini chalkashtirib qo'ymaslik uchun qoshlarini qizil rangga bo'yab olgan edilar. «Sariq ro'mollilar» qo'zg'oloni **II asrdagi** eng yirik isyon bo'ldi. Qo'zg'olon butun mamlakatni qamrab oldi. Faqat hukmdorning yaxshi qurollangan va harbiy ta'lim ko'rgan qo'shinlarigina uni bostirishning uddasidan chiqishdi. *Xunlar* hujumlari kuchayishi bilan davlat ham zaiflashdi. **Milodiy III asrda** Xan davlati uchta podsholikka parchalanib ketdi.

37-bilet

1. Qadimgi Baqtriya davlati haqida ma'lumot bering.

Bu davrda qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Qalaimir, Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon kabi mil. avv. VI-IV asr yodgorliklaridan ko'plab mehnat qurollari topilgan. Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Bu hududlarda undan tashqari chorvachilik, kulolchilik, temirchilik va badiiy hunarmandchilik (Amudaryo xazinasi) ham rivojlanadi.

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar «Avesto» ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi) Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek, Klesiyning qadimgi Baqtriya podshohi haqidagi ma'lumotlari va nihoyat arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog'liq bo'lgan mavzularning ayrim yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston) hududlarida harbiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. O'sha davrda Marg'iyona va So'g'diyona qadimgi Baqtriyaning ayrim qismlari bo'lganligi haqida turli ma'lumotlar bor. Baqtriya Sharqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib, aholining, qudratli shaharlar va qalalarning ko'pligi, tabiiy xom ashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar «Katta Xorazm», «Qadimgi Xorazm» masalalariga birmuncha aniqliklar kiritdi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Xorazm tuprog'ida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom g'isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim erto'lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan erlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi erlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarga oiddir. O'lkada bu davrlarga oid ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgohlar, xom g'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan.

2. Fermopil jangi haqida ma'lumot bering.

Yangi urushga tayyorgarlik ketayotgan paytda Doro I vafot etdi. Yunonistonga qarshi uning o'g'li Kserks yurish boshladi. **Mil. avv. 480 - yilda** Kserks qo'shini shimoliy Yunonistonni ishg'ol qiladi. Tog'lardagi *Fermopil darasi* Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan-bir yo'l edi. Yunonlar o'sha joyda pistirma qo'yishga qaror qilishdi. Yunonlar qo'shiniga Sparta podshosi *Leonid* boshchilik qilgan. U forslarning hujumlarini qaytarib turgan. Biroq bir sotqin forslarga tog'lar orqali o'tgan boshqa yo'lni ko'rsatib bergan. Bundan xabar topdan Leonid 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Spartaliklarning barchasi jang maydonida qahramonlarcha halok bo'ldi. Ushbu voqea «*Uch yuz spartalik jasorati*», deb tarixda mashhur bo'lib qolgan. Fermopil jangidan keyin Kserks qo'shinlari O'rta Yunonistonga yetib borib, Afi nani ishg'ol qilganlar.

38-bilet

1. Parfiya davlati.

Parfiya - antik davrda, Kaspiy dengizining janubi-sharqiy qismida joylashgan hudud. Eron tilidagi qabilalar eramizdan avvalgi 1500-yildan kechiktirmay joylashdilar. Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab Aleksandr Makedoniyani bosib olgach, Parthia Achaemenid davlatining satrapiylaridan biri deb hisoblangan, keyinchalik Seleucid davlatining bir qismi bo'lgan va miloddan avvalgi 250 dan milodiy 227 yillarda Parfiyadagi Parfiyalik shohlik bo'lgan. Seleucid davlati rad etib, Parthia o'zini yanada kuchaytirdi va kengaytirdi. Parthian podshohligi eng katta zafar paytida Eron orqali Indoneziya vodiysidan Bobildan uzoqda. Parfiyalik shohlik 227 yilda, Sasoniyalar davlati paydo bo'lgan vaqtdan boshlab, yo'q bo'lib ketdi.

Parthia shimoliy-sharqiy Eron va janubiy Turkmaniston bilan umumiy nuqtai nazarda. Shimoldagi Qoraqumga chegaradosh, janubdagi Kopetdag' tog'lari va Desht-i Kavir cho'llari kiradi. U g'arbda Mius, shimoli-g'arbiy qismidagi Xirkaniya, shimoli-sharqdagi Margiana, janubi-sharqda Areiya (Herat vohasi) bilan chegaradosh. Astauen, Parfien va Alavartikken uchta hududga bo'lingan.

2. Afina davlatida Solon islohotlari haqida ma'lumot bering.

Afi na davlatida xalq aslzodalar hukmronligidan norozi edi. Xalqning ahvoli tobora yomonlashaverdi, shunda odamlar o'z haq-huquqlari uchun kurashga bel bog'ladilar. Ular zodagonlarning uy-qo'rg'onlariga hujum qila boshladilar. O'z yeri va jonidan xavotirlangan zodagonlar yon berishga va xalq talablarining bir qismini bajarishga majbur bo'lishadi. O'ta bilimdon va tajribali *Solon* degan zodagon, xalqqa yon berishning qattiq tarafdori bo'lgan. Zodagonlar Solonga ishonishdi va uni Afina hukmdori etib saylashdi. **Mil. avv. 594-yilda** Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o'zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi – *aristokratiya* (aslzodalar hokimiyati)ni *demokratiya* (xalq hokimiyati)ga almashtirdi. Davlatni boshqarishda faqat erkak fuqarolar ishtirok eta olardi. Ayollar va chet elliklar (ularni *meteklardeyishgan*) qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar. Solonning taklifi bilan dehqonlarning qarzlari va qarzdorlarni qul qilish bekor qilinadi. Davlat boshqaruvidagi islohotlar Xalq majlisi faoliyati tiklanishi va nasl-nasabidan qat'iy nazar afi naliklar uchun ham davlat mansablarini egallash imkoniyatini ko'zda tutar edi.

39-bilet

1. Mitanni podsholigi.

Hozirgi Suriya hududida vujudga kelgan qo'shni *Mitanni podsholigi* xetlarning xavfli raqibiga aylandi. Urushlarda mitanniliklar otliq qo'shindan foydalanishgan.

2. Qadimgi Yunonistonda me'morchilik va haykaltaroshlik.

Yunonlar nafaqat podsholar va zodagonlar uchunsaroilar, balki hamma odamlar foydalanadigan jamoat binolarini ham barpo etishgan. Haykallar va boshqa haykaltaroshlik asarlari faqat saroy

a'yonlari uylarini bezamasdan, ayni paytda shahar maydonlari, ibodatxonalar, hammaga ochiq tomoshabog'lar va stadionlarni ham bezab turgan. Ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan barpo etilgan. Xususiylar esa g'ishtdan va paxsadan qurilgan. Yunon haykaltaroshlari o'z xudolari hamda mashhur olimlari, Olimpiya o'yinlari g'oliblari yoki jangda zafar quchgan qahramonlar sharafiga haykallar tiklashgan. Eng buyuk yunon haykaltaroshlaridan biri *Fidiy* edi. U Afi nade *Parfenon* barpo etilishi va Akropolning qayta qurilishiga boshchilik qilgan. Uning mashhur asari, Yer yuzidagi yetti mo'jizaning biri hisoblangan olimpiyalik Zevs haykalidir. Arxitektor va haykaltarosh *Dedal* Minos degan podsho uchun mashhur *Labirint saroyini* barpo etgan. Akropol markazida bunyod etilgan Parfenon Yunonistondagi eng a'lo marmar toshlardan qurilgan. Yorug'lik tushishiga qarab u o'z rangini oltin rangidan havorang yoki kulranggacha o'zgartirib, tuslanib turgan.

40-bilet

1. Yunon-Baqtriya davlati.

Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo'lmish *Diodot* o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan boshlab Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. **Mil. avv. 250-yilda** Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfi ya Baqtriyaning raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyona ham kirgan. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan *Yevtidemga* o'tadi. Yevtidemning o'g'li *Demetriy* hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olindi. Parfi yada hokimiyat *Mitridat I* qo'lga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo'ladiki, bu hol uning kuchsizlanishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan ko'chmanchi *yuechji* qabilalari **mil. avv. 140 –130-yillar** oralig'ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

2. Qadimgi Hindistonda fan va madaniyat.

Qadimiy Hindistonda ilmfan, xususan, astronomiya va matematika sohasi yuksak darajaga erishadi. Hindlar yil hisobining 360 kundan tarkib topgan taqvimini tuzadilar. Bu davrda sanash va hisoblashning o'nlik tizimi keng tarqaladi: hindlar «nol»ni ifodalovchi maxsus belgini o'ylab topishadi, raqamlarni esa bugungi kunda butun dunyo qo'llaydigan bir tartibda yozadigan bo'ladilar. Biz bu raqam larni arab raqamlari deb ataymiz, negaki hindlardan qabul qilingan bu raqamlar arab tilida yozilgan asarlar orqali dunyoga keng tarqalgan. Hindistonda ixtiro qilingan, hindlarning o'zi «*qo'shinning to'rt turi*» deb ataydigan o'yin bugungi kunda butun jahonda «shaxmat» nomi bilan ma'lum va mashhurdir. Hindlar birinchi bo'lib shakarqamishdan shakar olganlar. Metallarga ishlov berish sohasida ham hindlar kishini lol qoldirgulik natijalarga erishdilar. Qadimiy hind tillari asosida yangi ada biy til bo'lmish *sanskrit* tili vujudga kelgan. «*Mahabharat*», «*Ramayana*» dostonlari hamda boshqa asarlar ana shu tilda yozilgan bo'lib, ular bugungi kunga qadar yetib kelgan.

Bizning rasmiy sayt:	maktabim.uz
Hamkor sayt:	azamat.moy.su
Telegram manzilimiz:	@maktabimuz
Telegram botimiz:	@imtixonbot
Admin bilan aloqa:	@ziyokor

maktabim.uz